



**«TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSIYA, INTEGRATSIYA VA
ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR»
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ:
«ИННОВАЦИИ, ИНТЕГРАЦИЯ И СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ
ТЕХНОЛОГИИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ»**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE:
«INNOVATION, INTEGRATION AND MODERN PEDAGOGICAL
TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM»**



**QISM
ЧАСТЬ
PART**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmon Azim. Uzun tun. – Toshkent: Yozuvchi, 1994. – B. 32.
2. Usmon Azim. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1995. – 282 b.
3. Usmon Azim. Yurak. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2009.
4. Raimova S.Z. (2021). Diniy-ma’rifiy she’rlarning janr tavsifiga doir. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(6), 142-146. <https://cyberleninka.ru/article/n/diniy-ma-rifiy-she-rlarning-janr-tavsifiga-doir/viewer>.

© *Turg‘unova Mahliyo Nuriddin qizi*, 2025

XURSHID DAVRON SONETLARIDA IJODKOR OBRAZI TALQINI

Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon qizi,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti doktoranti

Annotatsiya. Maqola Xurshid Davron sonetlarida ijodkor shaxslar obrazining tahlili hamda talqiniga bag‘ishlangan. Lirikada davr va tarixiy shaxs munosabatlari ilmiy-nazariy manbalarga tayanilgan holda lirik qahramon vositasida ochib berilgan. She’rlardagi ijodkor shaxsiyati haqidagi xulosalar umumlashtirilgan.

Tayanch so‘zlar: ijodkor shaxs obrazi, zamon va makon munosabati, badiiy tafakkur, janr xususiyatlari, milliy xarakter.

Аннотация. Статья посвящена анализу и интерпретации образа творческой личности в сонетах Хуршида Даврона. В лирике связь периода и исторического лица раскрывается через лирического героя, опираясь на научно-теоретические источники.

Сделаны выводы о личности творца в стихотворениях.

Ключевые слова: образ творческой личности, соотношение времени и пространства, художественное мышление, жанровые особенности, национальный характер.

Abstract. The article is devoted to the analysis and interpretation of the image of a creative personality in the sonnets of Khurshid Davron. In the lyrics, the connection between the period and the historical person is revealed through the lyrical hero, relying on scientific and theoretical sources. Conclusions are drawn about the personality of the creator in the poems.

Keywords: image of a creative personality, relationship between time and space, artistic thinking, genre features, national character.

Lirikada ijodkor obrazi, uning his-tuyg‘ulari, kechinmalaridagi dard va iztirob holatlarining aksi ma’lum tarixiy davrdagi ijtimoiy-siyosiy holatning umumiy timsolini yuzaga keltiradi. Shaxs va jamiyat munosabatlari hamma zamonlarda ham badiiy adabiyotning bosh mavzusi bo‘lgan, ayniqsa, tarixda o‘z nomini abadiyatga muhrlagan ijodkorlar obrazi badiiy adabiyot bilan bir qatorda tarixiy jarayonlarning ham asosiy obyektidir.

Xurshid Davron ijodida tarixiy shaxslarga bag'ishlangan she'rlar salmoqli o'rin tutadi. Ularning aksariyati tarixiy sarkardalar, davlat arboblari va xalq qahramonlariga bag'ishlangan bo'lsa, ko'pchiligi ijodkor shaxslar, xususan, yozuvchi va shoirlar holidan xabar berishi bilan ahamiyatli sanaladi. "Chunki har bir tarixiy shaxs, ayniqsa, tarixiy ijodkor shaxs qismatida tarixning uch tarkibiy qismi – o'tmishi, hoziri va kelajagi bir butun uyg'unlikda yashaydi" [4, p. 3]. Shoirning "Ey, tilim, ey, elim, ey, ona tuproq" sonetlar turkumidan o'n to'rtta she'r o'rin egallagan. Ular turli zamon va ijtimoiy vaziyatlarda yashagan ijodkorlarning umr yo'llari hamda ijtimoiy hayot muammolaridan hikoya qiladi.

Avvalo, shoir ijodkor shaxsini tasvirlashda murojaat etgani sonet janrining o'ziga xosliklariga biroz to'xtalsak. Sonet qat'iy tizimga ega bo'lgan o'n to'rt misrali she'r bo'lib, ikkita to'rtlik (katrena) va ikkita uchlik (terseta)dan iborat. "Birinchi to'rtlikda asosiy fikr o'rtaga tashlanadi, ikkinchi to'rtlik bu fikrni rivojlantiradi; birinchi uchlik yechimdir, ikkinchi uchlik xotima deyiladi" [1, p. 188]. Sonet o'ta murakkab va shoirdan juda katta mehnat, mahorat talab qiladi, ammo uning poetikasi zahirida ham milliylik, ham umuminsoniylikni birday jo etish mumkin. Milliy adabiyotimizga bu janr o'tgan asrning boshlarida kirib keldi va uning birinchi namunalari Usmon Nosir she'riyatida bo'y ko'rsatdi.

Xurshid Davron sonetlarida ijodkorlarning ketma ketligi tarixiylik nuqtayi nazaridan belgilangan. Turkumdan o'rin olgan ilk sonet "Mahmud Qoshg'ariy" abab, abab, dee, dee tarzida o'zaro qofiyalangan. Olimning shaxsiyati XI asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda va G'arbiy Xitoy hududida istiqomat qilgan urug' va qabilalar, ularning ijtimoiy ahvoli, tili, tarixi, bu hududlarning geografiyasi, metrologiyasi va astronomiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirilgan "Devonu lug'otit-turk" asari bilan bir butunlikda o'rganiladi.

Sen ila yig'layin, sen ila kulay,

Sen unut bo'lmasang, unut bo'lmasman,

Sen agar o'lmasang, men ham o'lmasman [5, p. 63]. – deya shoir o'z savollariga yechim izlaydi. Ya'ni Mahmud Qoshg'ariy sof turkiy so'zlar lug'atini yaratib o'z xalqi oldida buyuk ehtiromga sazovor bo'lgan bo'lsa, Xurshid Davron lirik qahramon tilidan xalqning abadiyligini ona tilining umri bilan baholaydi.

Turkiy tilni yuksak bosqichga olib chiqqan, bu tilda ham nodir asarlar yarata olish mumkinligini isbotlab bergan buyuk ijodkor Alisher Navoiy ijodiy konsepsiyasini Xurshid Davron quyidagicha ifodalaydi:

Tilim, ko'zim oqi, ko'zim qarosi,

Sen belim madori – irg'ay hassamsan,

Avlodlarga meros o'tli qissamsan [5, p. 63].

Bu o'rinda adib "tilim" deganda ikki muhim tushunchaga urg'u beradi. Birinchisi, turkiy til bo'lsa, ikkinchisi Navoiyning asarlari. Shoir go'yo buyuk Navoiyning suronlarga to'la hayotini mana shu o'n to'rt misraga sig'dirishga urinadi. Sonetda olim yashagan davr, ijtimoiy-siyosiy vaziyat, shahzodalar

o'rtasidagi taxt talashishlari, qog'ozga to'kilishga ulgurmagan alam va dardlarga to'la satrlar o'z aksini topadi.

Butun umri Vatandan hajrida o'tgan yana bir ijodkor Zahiriddin Muhammad Boburga bag'ishlangan she'rda ham mavzu mantiqan davom ettiriladi. XV asrning eng buyuk fenomenlaridan sanalgan Boburning hayoti har jixatdan ibrat bo'lishga arziydi. Bobur shaxsiyati, uning beqaror turmush-tarzi, shu bilan birga qat'iyati va sabr matonati Xurshid Davron lirikasining katta qismini egallashi bilan bir qatorda, "Samarqand xayoli" nasriy asari va "Boburshoh sog'inchi" tarixiy dramalarining ham yuzaga kelishida muhim omil hisoblanadi. Qaydadir hasratim bitilgan tosh bor, Qaydadir buzilgan xonaqom bordir.

Ul tosh bardoshimdir, ul tosh yoshimdir, Xonaqoh
– buzilgan ona diyordir [5, p. 64].

Temuriy shahzodalar orasidagi taxt talashishlar, ular orasidagi noahillik, buyuk Sohibqiron merosiga ega chiqa olmaslik, shoh va shoir yuragini iztirobga soladi. Bu bir sulolaning tanazzuli emas, balki xalqning ham og'ir turmushiga ishora ekanligini Xurshid Davron o'z tanasida his qiladi va uni boricha o'quvchiga yuqtirishga harakat qiladi.

XII asrning ikki buyuk ijodkori Boborahim Mashrab va Turdi Farog'iy shaxsiyati ham shoir e'tiboridan chetda qolmagan. Ikkala ijodkor ham o'zi yashagan davrning hukmron tabaqasiga xush kelmagan fe'l-atvori sabab ko'plab qarshiliklarga duch kelishgan. O'z zamonasining muammolaridan kelib chiqib qalam tebratgan Boborahim Mashrab va Turdi Farog'iy ijodining bosh g'oyasi mohiyatan inson qadri, sharafi va ma'naviy kamolotini ulug'lashga, ezgulik va go'zallikni madh etishga qaratildi. Shoir shularni nazarda tutib:

"Birlashing!" dedimu yutdim laxta qon,
Ko'zimni yumdimu tilimni yutdim,
Ammo, sen tilimni qaytarding, yurtim. [5, p. 65] – deya bong uradi.

Xonliklar davrining eng buyuk shoirasi, o'z davrining Bibixonimi sanalgan Nodirabegimning hayoti va ijod yo'li hamma zamonlarda ham ayol, ona, malika, shoira, ustoz, ziyoli o'zbek ayoli siymolarini o'zida jamlagan mukammal obraz sifatida ijodkorlarga ilhom bag'ishlab keladi. Nodirabegimning fojiaiy taqdiri, o'lmas ijodiy merosi kelajak nasllar uchun ham ayollar she'riyati nafosatining betakror namunasi sifatida xizmat qiladi.

Alam tunlarining qonli zardobi
Qora sochlarimni bo'yadi oqqa,
Yonganda o'limning qora oftobi
Men faqat ishondim ona tuproqqa [5, p. 65].

"Sonetda mazmun-mohiyat shakl-hodisaga bo'ysundiriladi, shakl mazmun ustidan hukmronlik qiladi. Shu sababdan ham, sonetda birlamchi e'tibor shaklga qaratiladi, shoir avvalo mazmunni emas, shaklni o'ziga bo'ysundirishi lozim bo'ladi. Har bir sonet mazmunining shaklga solinishi esa, xuddi asov otga ilk

marta egar urishdek mahorat va mehnatni talab qiladigan jarayondir". [3, p. 25]. Xurshid Davron shakl yetakchiligiga asoslangan sonet janrida mazmunni ham shakl bilan bir xil muvozanatda tutib tura oladigan kam sonli ijodkorlardandir.

XX asr xalqimiz tarixida muhim o'rin tutuvchi o'ziga xos adabiy-estetik hodisalarga boy davr hisoblanadi. Bu vaqtda ijodkorlar har taraflama tazyiqqa uchradi. Asr boshidagi qatag'onlar, badiiy ijod ustidan senzuraning o'rnatilishi, adabiyotning partiya manfaatlariga bo'ysundirilishi, yozuvchi va shoirlarning asarlaridan siyosiy g'oyalar axtarilishi davr ijodkorlarida har tomonlama zakovat, ehtiyotkorlik va so'zga nisbatan talabchanlikni tarbiyaladi. Cho'lpon milliy she'riyatimizga yangicha pafos olib kirgan bo'lsa, Usmon Nosir uni yangicha ruh va shakllar bilan boyitdi. Oybek, Mirtemir va Maqsud Shayxzoda kabi adiblارimiz esa o'z salafлари izidan borib milliy adabiyotimizga yangi qahramonlarni olib kirdilar.

Etaklarin o'pdim shivirlab, "Pirim..."
Va sezdim bilakda paydo bo'ldi kuch,
Angladim, Sen borki, boshqa narsa – puch...

Shundan qog'oz yondi – yondirdi she'rim...
Kuydi, kul bo'lmadi, chiqmadi jonim, O'chmadi
ovozim, so'nمadi qonim...[5, p. 68].

Zamonning zo'rliklari orasida o'z shaxsiyatini, asliyatini, nekbinligini asrab qola olgan ijodkorlar Xurshid Davron nazarida chinakam inson deya atalishga loyiq shaxslardir. "Shaxsiyat ijodiy ishda ko'p narsani belgilaydiki, mana shuning uchun Navoiy ijodiyotida mislsiz bir teranlik yashaydi. Mana shuning uchun Bobur poeziyasida tasavvur g'oyatda yangilanadi. Mana shuning uchun Mashrab g'azallarida shakkoklik va sarkashlik, uni o'zi aytmoqchi, ruhi jonni osmoniy balandlikka ko'taradi" [2, p. 216].

Janrning qat'iy shakliy qolipga ega ekanligi chinakam ijodkorni hech qachon o'ylantirib qo'ymaydi. Janr qonuniyatlarini o'zlashtirishning o'zigina yuksak didni tarbiyalay olmasligi ham sir emas. Shu bois shoir ijodkor obrazini yaratishda ma'lum shakliy qonuniyatlarni his qilib, uning imkoniyatlarini o'ziga butkul bo'ysundiradi. Shuning uchun ham Xurshid Davron sonetlarida ijodkor shaxsiyati janr talablari soyasida xiralashib qolib ketmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zResFA. Adabiy turlar va janrlar. 3 jildlik. 2-jild. Lirikа. – T.: "Fan", 1992.
2. Haqqulov I. She'riyat – ruhiy munosabat. Adabiy-tanqidiy maqolalar. – T.: "G'afur G'ulom", 1990.
3. Sher A. Sonet sirlari. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining 2009-yil 43-soni.
4. Karimov H. Tarixiy shaxs va badiiy obraz: Filol. fanlari nomzodi diss. avtoref. – Toshkent: TAI, 1999.

5. Davron X. Bahordan bir kun oldin. – T.: “Sharq”, 1997.

© Usmanova Ziyodaxon Ilxomjon qizi, 2025

ABDULLA AVLONIYNING ASARLARIDA AXLOQIY MASALALARNING TALQINI

Abduraxmonova Nozimaxon Nozimjon qizi,

NamDPI magistranti
(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Mashhur o‘zbek ma’rifatparvari, shoiri, jamoat arbobi, jadidchilik harakatlarining ulug‘ namoyondasi Abdulla Avloniy 1878 – 1934-yillarda yashab ijod qilgan. Abdulla Avloniyning ta’lim-tarbiya sohasidagi qarashlari, o‘z asarlarida qo‘llagan axloqiy sifatlari o‘zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘langan. Uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu ma’noda Abdulla Avloniyning siymosi, faoliyati biz uchun qadrlidir. Ushbu maqolada Avloniyning yozgan asarlarida axloqning ahamiyati, uning o‘rni va axloqiy masalalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: axloqiy masalalar, axloq, tarbiya, Vatan tuyg‘usi, yaxshi xulq, yomon xulq, ilm, aql.

Annotation. The famous Uzbek enlightener, poet, public figure, and great representative of the Jadid movement, Abdulla Avloni, lived and worked from 1878 to 1934. Abdulla Avloni's views on education and the moral qualities he used in his works are closely connected with the spirit, lifestyle, and national values of the Uzbek people. His rich pedagogical heritage serves as a valuable resource in the development of the national school and national pedagogy. In this sense, the figure and work of Abdulla Avloni are valuable to us. This article discusses the importance of morality, its role, and ethical issues in Avloni's works.

Keywords: moral issues, ethics, upbringing, patriotism, good behavior, bad behavior, science, intelligence.

Аннотация. Известный узбекский просветитель, поэт, общественный деятель, крупный представитель джадидского движения Абдулла Авлони жил и творил с 1878 по 1934 год. Взгляды Абдуллы Авлони на образование и нравственные качества, которые он использовал в своих произведениях, тесно связаны с менталитетом, образом жизни и национальными ценностями узбекского народа. Его богатое педагогическое наследие служит ценным ресурсом в развитии национальной школы и национальной педагогики. В этом смысле личность и творчество Абдуллы Авлони представляют для нас ценность. В этой статье обсуждается важность морали, ее роль и этические вопросы в трудах Авлони.

Ключевые слова: моральные проблемы, этика, воспитание, патриотизм, хорошее поведение, плохое поведение, наука, интеллект.

Taniqli ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan, o‘z asarlarida o‘zbek xalqining eng yaxshi an’analarini

misolida.....	95
6. Xashimova X.D., Ravshanova M.Z. Tog‘ay Murod asarlarining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni va ta’siri	110
7. Ermanbetova Sh.B. Habib Sa’dulla ijodida lirik qahramon va muallif obrazi	115
8. Boyatov O.M. Majzub Namangoniy ijodida aruz vazni	120
9. Ergasheva R.O‘. Ko‘prik obrazi: an’anaviy ramzdan zamonaviy talqin (amaliy tahlil uchun Sirojiddin Sayyid she’riyati misol qilib olingan)	123
10. Тошбоева М.О. Понятие эпиграфа и его функции в литературно тексте	129
11. Turg‘unova M.N. Usmon Azimning badiiy obraz yaratish mahorati . . .	132
12. Usmanova Z.I. Xurshid Davron sonetlarida ijodkor obrazi talqini . . .	136
13. Abduraxmonova N.N. Abdulla Avloniyning asarlarida axloqiy masalalar-ning talqini	140
14. Jumanazarova U.R. Oliy ta’limda jahon va o‘zbek adabiyotining qiyosiy tahlili vositasida talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlan-tirish ta’limiy muammo sifatida	143
15. Ruzimurodova G.R. Formation of independent work skills in students through literature circles	149
16. Nurjonova A.Q. Gavharshod begim obrazi haqida	155
17. Sayfullayeva Z.S. “Sohibqiron Amir Temur” qissasi manbasi va badiiyati.....	158
18. Ravshanova M.Z. O‘lmas Umarbekov va uning asarlari	162
19. Xabibullayeva M.D. “Odam bo‘lish qiyin” – olimlik va odamiylikni farqlovchi asar	165
20. Xamdanova M.E. Cho‘lpon lirikasining o‘ziga xosligi (“Go‘zal” she’ri	